

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**YAKUBOV FAXRIDDIN JURAQULOVICH**

**HOZIRGI DAVR INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA  
METAFORANING AHAMIYATI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

UO‘K: 811.111’42:34  
811.512.133’42:34

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)  
on philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по филологическим наукам**

**Yakubov Faxriddin Jo‘raqulovich**

Hozirgi davr ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida metaforaning ahamiyati ..... 3

**Якубов Фахриддин Джуракулович**

Значение метафоры в современном английском и узбекском политическом дискурсе ..... 25

**Yakubov Fakhriddin Jurakulovich**

The importance of metaphor in modern English and Uzbek political discourse.... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works..... 54

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI  
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI**

**YAKUBOV FAXRIDDIN JURAQULOVICH**

**HOZIRGI DAVR INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSIDA  
METAFORANING AHAMIYATI**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2026**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil4757 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.samdchti.uz](http://www.samdchti.uz)) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

**Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponenlar:

**Shamaxmudova Aziza Furkatovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

**Xushmurodova Shahnoza Shaymonqulovna**  
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

**Buxoro davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "30" may soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 234-29-36; e-mail: [info@samdchti.uz](mailto:info@samdchti.uz)).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (63047 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 234-29-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "30" aprel kuni tarqatildi.  
(2026-yil "30" aprel dagi № 30 raqamli reyestr bayonnomasi).



**N.Z. Nasrullayeva**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
filologiya fanlari doktori (DSc),  
professor

**O'.O'. Qo'ldoshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent

**A.D. Kiselyov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori (DSc), professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida turli soha vakillari o'rtasidagi kommunikativ munosabatlarning o'ziga xos jihatlari tadqiq etishga bo'lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunday izlanishlar natijalariga ijtimoiy talabning ortib borishi ushbu yo'nalishdagi ilmiy ishlarning keng miqyosda olib borilishini zaruratga aylantirib ulgurdi. Keyingi yillarda bu bilan bog'liq muammolar tadqiqotchilar e'tibori markazidan o'rin egalladi. So'nggi o'n yilliklarda tilshunoslik nazariyasining ko'plab taniqli olimlari o'z e'tiborlarini tilning siyosiy makon va zamon prizmasi tadqiqiga qaratmoqdalar. Bu esa, o'z navbatida, zamonaviy siyosiy va ijtimoiy qutblanish sharoitida nutq orqali ta'sir o'tkazish mexanizmlarini kognitiv-pragmatik tashxislash, tasavvur etish zarurati ortib borayotganini namoyon etmoqda.

Dunyo tilshunosligida nutq egasining tinglovchi yoki o'quvchiga o'z fikrini aniq, lo'nda va tushunarli tarzda yetkazishida tilning ta'sirchan vositalaridan qanday foydalanish masalasi tobora ko'proq ilmiy e'tiborni jalb etmoqda. Ayniqsa, jamoatchilik bilan bevosita ishlaydigan, xalq bilan muntazam muloqotga kirishadigan siyosiy faollar, jumladan, saylov kompaniyalari ishtirokchilari va deputatlar siyosiy nutq egasi sifatida ommaviy muloqotda qaysi lisoniy vositalardan foydalanish samarali ekanligini, nutqning ko'zlangan maqsadga erishishini ta'minlovchi hal qiluvchi tayanch birliklar nimalardan iboratligini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bugungi kunda dunyo miqyosida siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning tobora qutblashib borayotgani siyosiy psixologiyani aynan nutq orqali o'rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizda o'zbek tilshunosligida siyosiy diskurs va unda metaforaning qo'llanilishini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar faollashib, xalqaro hamkorlik hamda ilg'or tajribalarni almashishga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda siyosiy diskurs tilshunoslikning yetakchi tadqiq obyektlaridan biriga aylanib, taraqqiyot va inson manfaatlarini targ'ib etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Siyosiy nutqni lingvistik jihatdan tahlil qilish davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni samarali tartibga solish hamda ijtimoiy nazoratni ta'minlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, "O'zbek tilini siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy va boshqa sohalarda qo'llash doirasini kengaytirish, undan davlat tili sifatida to'liq va to'g'ri foydalanishni ta'minlash"<sup>1</sup> uchun lingvistik tadqiqotlar doirasida siyosiy diskurs va unda kognitiv metaforaning ahamiyatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar ustivorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivolantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son "O'zbekiston

---

<sup>1</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 20 октябрдаги ПФ-6084-сон "Мамлакатимизда ўзбек тилини янада риволантириш ва тил сиёсатини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Фармони // <https://lex.uz/docs/-5058351> (murojaat sanasi: 12.06.2022).

Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 8-oktabrdagi “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi” to‘g‘risidagi PQ-5847-son Qarorlari, 2020-yil 20-sentabrdagi O‘RQ–637-sonli “Talim tog‘risida”gi Qonuni, 2020-yil 24-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Jahon tilshunosligida<sup>2</sup> kognitiv-pragmatik tahlilga, ayniqsa, iqtisodiy (tijoriy) diskursga<sup>3</sup> alohida e‘tibor beriladi. Shuningdek, siyosiy nutqda metaforalarning ishlatilishiga doir tadqiqotlar<sup>4</sup> ham mavjud. Ayniqsa, siyosiy diskursda metaforalarni kognitiv-diskursiv nuqtayi nazardan o‘rganilishida Amerikalik olimlar J.Lakof, M.Jonson, Z.Kovekses, Raymond U.Gibs, G.Faukonnier va M.Tyorner<sup>5</sup>, rus tilshunoslaridan A.N.Baranov, I.V.Brovchenko, E.V.Budayev, V.Z.Demyankov<sup>6</sup> kabilarning tadqiqotlarini alohida ta’kidlash mumkin. Kognitiv tilshunoslik muammolari o‘zbekistonlik olimlar A.A.Sodiqov, A.A.Abduazizov, D.U.Ashurova, O‘.K.Yusupov, Sh.T.Maxmarayimova, M.V.Ergasheva, Sh.S.Safarov<sup>7</sup> va

<sup>2</sup> Candlin C.N. Introduction / Research and Practice in Professional Discourse / C.N. Candlin; ed. by C. Candlin. – Hong Kong: City University of Hong Kong Press, 2002. – P. 1–39.

<sup>3</sup> Bargiela, F. Business Discourse across 'cultures': data selection, collection and analysis / F. Bargiela. – Warwick, 2010.; Bargiela–Chiappini, F. The Handbook of Business Discourse / F. Bargiela–Chiappini. – Edinburgh University Press, 2009. – 520 p; Bargiela–Chiappini, F., Nickerson, C. Business discourse: Old debates, new horizons / F. Bargiela –Chiappini, C. Nickerson // International Review of Applied Linguistics in Language Teaching. – 2002. – Vol. 40, Issue 4. – P. 273–286.

<sup>4</sup> Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: The University of Chicago Press, 1980. –242 p.

<sup>5</sup> Kövecses Z. Metaphor: A practical introduction / Z. Kövecses. – Oxford: Oxford University Press, 2002. – 375 p.; Gibbs R.W. Jr., Wilson N.L. Bodily action and metaphorical meaning // Style. 2002. Vol. 36 (3); Turner M., Fauconnier G. Metaphor, Metonymy, and Binding // Metaphor and Metonymy at the Crossroads: A Cognitive Perspective / Ed. A. Barcelona. Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 2000.

<sup>6</sup> Баранов А.Н. Очерк когнитивной теории метафоры / А.Н. Баранов // Русская политическая метафора: материалы к словарю / А.Н. Баранов, Ю.Н. Караулов. – М.: Институт русского языка АН СССР, 1991. – С. 184–193.; Бровченко И.В. Концептуальная метафора в клише англоязычного научного текста: дис. ... канд. филол. наук.: 10.02.04 / Бровченко Ирина Владимировна; Черкасский нац. ун–т имени Б. Хмельницкого; науч. рук. Жаботинская С.А. – Черкассы, 2011.; Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения //Текст. Структура и семантика. Т. 1. – М., 2001.; Будаев Э.В. Зарубежная политическая лингвистика. Учеб. пособие / Э.В.Будаев, А.П.Чудинов. – 2–е изд., стер. – М.: Флинта, 2012. – 352 с.; Демьянков В.З. Политический дискурс как предмет политологической филологии / В.З.Демьянков // Политическая наука. Политический дискурс: История и современные исследования. ИНИОН РАН. – М, 2002. – № 3. – С.32-43.

<sup>7</sup>Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. Darslik. – T.: Sharq, 2010. – 176 b.; Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – B. 99; Ashurova D.U. Stiliatika teksta v paradigme kognitivnoy lingvistik // Filologiya masalalari. – T., 2003. – №1. – С. 41–45; Ashurova D.U. Perspektivy nauchnykh issledovaniy v svete novykh napravleniy lingvistik // Filologiya masalalari. – T., 2004. – №4. – С. 37–40; Ashurova D.U. Kognitivnaya lingvistika: teoreticheskiye i metodologicheskiye problemy // Xorijiy filologiya: til, adabiyot, ta’lim. – Samarqand: 2012. – B. 7-11; Юсупов Ў.К. Тилшуносликдаги янги йўналишлар ва уларда ишлатиладиган айрим истилохлар // Филология масалалари. – Т., 2011. – №2. – Б. 9-15; Махмараимова Ш.Т. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Филол. фан. док. дисс. автореф. Самарқанд: 2020. – 285 б.; Эргашева М.В. Оламнинг лисоний манзараси ва семантик майдонларга бўлиниши / М. В. Эргашева. – Текст: // Молодой ученый. –

boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida siyosiy diskursning turli masalalari doirasida sanoqli tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, siyosiy diskurs haqida ayrim mulohazalar<sup>8</sup>, siyosiy diskursda qo‘llanuvchi bog‘lovchi fe‘llarning funksional-semantik tadqiqi<sup>9</sup>, siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi<sup>10</sup>, siyosiy diskursning o‘zbek va ingliz tillardagi so‘zlovchining siyosiy diskursdagi obrazi, adresat qobiliyati yoki adresat omili, axborot tarkibi, maqsadga yo‘naltirilganlik kabi semantik-pragmatik xususiyatlari; siyosiy diskursda alliteratsiya, takror, parallelizm, metafora, aforizm va evfemizm kabi stilistik vositalardan ingliz tili bilan birga o‘zbek tilshunosligida ham faol foydalanilishi hamda ularni qo‘llash orqali tinglovchilar e‘tiborini jalb qilish, ularni eshitgan ma‘lumotlari haqida jiddiy fikrlashga undashi<sup>11</sup> kabi masalalar atroflicha tahlil etilgan. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya bo‘yicha ham tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, ularda ham qisman siyosiy lingvistikaga doir masalalar muhokama qilingan<sup>12</sup>. Biroq siyosiy diskursning siyosatchilar, xususan, deputatlar misolida ularning saylov kompaniyalaridagi nutqi maxsus ilmiy tadqiq etilmagan. Mazkur dissertatsiyada siyosiy diskursda metafora ishlatilishining ahamiyati o‘zbek va ingliz tili materiallari asosida tahlil qilingan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Ushbu tadqiqot Samarqand davlat chet tillar instituti o‘zbek tili, jurnalistika va kompyuter lingvistikasi kafedrasining “Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari” mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** ingliz (Britaniya, Amerika) va o‘zbek siyosiy diskursi doirasida metafora qo‘llanilishini kognitiv-diskursiv va pragmatik-kommunikativ yondashuvlar nuqtayi nazaridan ochib berish, ushbu lingvistik hodisalarning funksional xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tilshunoslikda siyosiy nutq tadqiqi va siyosiy nutqning diskursiv o‘rganilishining shakllanish omillarini, bosqichlarini aniqlash;

siyosiy diskursning ingliz va o‘zbek tillari misolidagi lingvistik, kognitiv hamda lingvokognitiv xususiyatlarini dalillash;

siyosiy diskursda kognitiv metafora qo‘llanilishining kommunikativ zaruratini va bu zaruratni yuzaga chiqaruvchi omillarni belgilash, aniqlash hamda ularning lingvistik belgilarini misollar asosida yoritib berish;

---

2016. – № 3.1 (107.1). – С. 59-62; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 91.

<sup>8</sup> Эргашев М. Сиёсий дискурс ҳақида айрим мулоҳазалар // <https://elibrary.ru/item.asp?id=39198703>

<sup>9</sup> Эргашев М.Р. Сиёсий дискурда қўлланувчи боғловчи феълларнинг функционал-семантик тадқиқи: Филол.фан. бўйича фал. док-ри дисс автореф. – Қўқон, 2020. – Б. 54.

<sup>10</sup> Shukurov U.I. Siyosiy diskurs: nazariy asoslari va kommunikativ strategiyasi: Filol.fan bo‘yicha fal.dok-ri diss. avtoref. – Andijon, 2023. – Б. 50.

<sup>11</sup> Файзиёева Н. Сиёсий дискурс эвфемизмларининг коммуникатив–прагматик хусусиятлари (инглиз ва ўзбек тиллари материаллари асосида): Филол.фан. бўйича фал. док–ри дисс автореф. – Тошкент, 2023. – Б. 52.

<sup>12</sup> Сайфуллаев Н. Ижтимоий–сиёсий терминлар тушунчаси ва талқини // Innovative Development in Educational Activities. Volume 2 | Issue 12 | 2023. – Б. 106–111.; Бекматов Б. Гилдаги ижтимоий–сиёсий лексика фаолиятининг ўзига хослиги // Academic Research in Educational Sciences Volume 2 | Issue 12 | 2021. – Б. 1388–1322.

ingliz va o'zbek siyosiy diskursida metaforaning kognitiv xususiyatlarini misollar orqali qiyosiy tadqiq va tahlil qilish hamda olingan natijalarning antroposentrik belgilarini dalillash.

**Tadqiqotning obyekti** siyosatchilarning, xususan, Prezidentlar, bosh vazirlarning nutqlari, bosma ommaviy nashrlardagi muloqotlar, shuningdek, nutq so'zlash, ma'lumot yetkazish va qabul qilishning ayrim audio va video shakllari.

**Tadqiqotning predmeti** ommaviy nutqda qo'llanilgan til birliklarning kognitiv-diskursiv xususiyatlari, siyosiy diskursdagi o'ziga xosliklar, metafora va uning kognitiv hamda konseptual belgilari.

**Tadqiqot usullari** kognitiv-diskursiv va pragmatik-kommunikativ tahlil usullari, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni hal etish va dissertatsiya ishida ko'rsatilgan maqsadga erishish uchun funksional, kontekstual va komponent tahlil, ko'p sonli metaforalarni tahlil qilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tilshunoslikda siyosiy nutq, uning diskursiv o'rganilish omillari va davrlari belgilanib, siyosiy tilshunoslik va diskursning rivojlanish bosqichlari ingliz va o'zbek tillari materialida ochib berildi. Siyosiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari nazariy-metodologik jihatdan asoslandi va bu boradagi qarashlar bir maxrajga keltirildi hamda siyosiy tilshunoslik yo'nalishining mustaqil ilmiy maqomi aniqlandi;

siyosiy diskursning ingliz (Britaniya, Amerika) va o'zbek tillaridagi lingvistik, kognitiv hamda lingvokognitiv xususiyatlari aniqlanib, ikki tildagi diskurslarda til vositalarining qo'llanish xususiyatlarining umumiy va milliy-differensial jihatlarini asoslash orqali, siyosiy matnlarning kognitiv tuzilmalari o'rtasidagi farqlar dalillandi;

siyosiy diskursda kognitiv metafora qo'llanishining kommunikativ zaruratini yuzaga chiqaruvchi omillar hamda ularning lingvistik belgilari misollar asosida yoritilib, ushbu diskursda keng qo'llaniladigan metaforalarning kognitiv asoslari, semantik maydonlari va lingvistik ifoda vositalari aniqlandi hamda metaforalarning siyosiy nutqdagi kommunikativ vazifalari ochib berildi;

ingliz (amerika) va o'zbek siyosiy diskurslarida metaforalarning kognitiv tabiati, madaniy va milliy xususiyatlari aniqlanib, madaniy-milliy kontekstlarda shakllangan siyosiy metaforalarning xalq ongidagi kognitiv modellarining ideologik yuklamalari va madaniy konnotatsiyalari isbotlandi.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

siyosiy diskursning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda lingvistik xususiyatlari nazariy-metodologik asoslanganligi, ingliz va o'zbek siyosiy diskurslarining lingvistik, kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida o'rganilganligi, siyosiy diskursda keng qo'llaniladigan metaforalar tahlil qilinib, ularning kognitiv asoslari, semantik maydonlari va lingvistik ifoda vositalari aniqlanishi, ingliz (Amerika) va o'zbek siyosiy diskurslarida metaforalarning kognitiv tabiati, hozirgi davrdagi eng mashhur siyosiy arboblarning ommaviy nutqlari misolida o'rganilib, madaniy va milliy xususiyatlari yoritilishi, tilshunoslikning diskurs nazariyasi, terminologiya, pragmalingvistika va kognitiv

tilshunoslik kabi bo‘limlarini yangi ilmiy ma’lumotlar bilan boyitishga xizmat qilishi isbotlangan.

siyosiy diskursda metaforalarning qo‘llanilishi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlardan O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida “Harbiy aviatsiya terminlarining uch tilli tarjima izohli lug‘atining elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan.

ingliz va o‘zbek siyosiy diskurslaridagi metaforalarni lingvistik, kognitiv xususiyatlarini umumiy va milliy differensial jihatdan chog‘ishtirma tahlil qilish orqali ularning o‘xshash va farqli jihatlarini yoritilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda hozirgi davr tilshunosligida keng qo‘llanilayotgan usullar yordamida siyosiy diskurs va siyosiy diskursdagi kognitiv metaforalarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi hamda ular asosida nazariy xulosalar chiqarildi, turli madaniy-milliy mentalitetga tegishli bo‘lgan metaforalarning kognitiv-diskursiv, kommunikativ-pragmatik hamda konseptual xususiyatlari haqida umumlashgan xulosalar taqdim qilindi.

**Ishning ilmiy va amaliy ahamiyati.** Dissertatsiyaning ilmiy natijalari ishda qamrab olingan birliklarning izohlanishida zamonaviy yondashuv natijasi sifatida asos bo‘la oladi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari mazkur sohada dastlabki tadqiqotlarini boshlagan izlanuvchilarga o‘zbek tilidagi siyosiy diskursda til birliklarning asosiy vazifalarini oson aniqlash va tavsiflashga, sohaviy muloqot mexanizmlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati uning natijalarini diskursologiya, leksikologiya, leksikografiya, kognitiv tilshunoslik va nutq nazariyasi bo‘yicha nazariy kurslarda qo‘llash, shuningdek, umumiy nutq nazariyasi bilan bog‘liq ko‘plab muammolarni hal etish amaliyotida, nominativ faoliyatning kognitiv jihatlarini yoritishda, shuningdek, darslik, uslubiy ko‘rsatmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligida namoyon bo‘ladi. Ishning natijalari va xulosalari tilshunoslik doirasida nutq madaniyati, notiqlik kabi interaktiv til kurslarini yaratishda ham keng qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqotning **nazariy ahamiyati** shundaki, uning asosiy natijalari va g‘oyalari siyosiy nutqlardagi til birliklarning kognitiv-diskursiv xususiyatlarini tahlil qilish uchun generator bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Hozirgi davr ingliz va o‘zbek siyosiy diskursida metaforaning ishlatilishi tadqiqi jarayonida olingan natijalar asosida:

siyosiy nutq, uning diskursiv o‘rganilish omillari va davrlarining belgilangani, siyosiy tilshunoslik va diskursning rivojlanish bosqichlari ingliz va o‘zbek tillari materialida ochib berilgani, siyosiy tilshunoslikning fan sifatida shakllanishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda siyosiy diskursning lingvistik xususiyatlari nazariy-metodologik jihatdan asoslangani, bu boradagi qarashlar bir maxrajga keltirilgani, siyosiy tilshunoslik yo‘nalishining mustaqil ilmiy maqomi aniqlangani haqida olingan xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2022-yil 12-dekabrda 2/24-4/7-690-sonli xatiga asosan 2022-2024-yillarda amalga oshirilgan va Toshkent shahridagi AQSH elchixonasi hamda AQSH davlat departamenti tomonidan moliyalashtirilgan

SUZ80020GR0039-raqamli “English Access Microscholarship Program” doirasidagi loyihada foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil, 14-avgustdagi 2375/02-sonli ma’lumotnomasi). Tadqiqot ishining amaliy natijalari umumiy tilshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslikka bag‘ishlangan ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar tashkillashtirishda, darslik va qo‘llanmalar yaratishda, kurs ishi, maqola va tezislar tayyorlashda, tadqiqot manbalarini optimallashtirish bo‘yicha tavsiyalar berishda qo‘llanildi.

ingliz (amerika) va o‘zbek siyosiy diskurslarida metaforalarning kognitiv tabiati, madaniy va milliy xususiyatlari aniqlanganligi, turli madaniy-milliy kontekstlarda shakllangan siyosiy metaforalarning xalq ongidagi kognitiv modellarining ideologik yuklamalari va madaniy konnotatsiyalari isbotlanishiga doir ilmiy natijalar, taklif, tavsiya va xulosalar O‘zbekiston Respublikasi Harbiy aviatsiya institutida 2022-2024-yillarda bajarilgan “Harbiy aviatsiya terminlarining uch tilli tarjima izohli lug‘atining elektron platformasini yaratish” mavzusidagi (AL-21091588) amaliy loyiha doirasida foydalanilgan. (Mudofaa vazirligi Harbiy kadrlarni tayyorlash boshqarmasining 2025-yil, 4-sentabrdagi 10/1998-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, dissertatsiya ilmiy natijalari loyiha doirasida dastur, qo‘llanma, ishlanma va izohli lug‘at ishlab chiqishda foydalanilgan. Dissertatsiya natijalarining samaradorligi va ular asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar amaliyotga tadbiiq etilishi yuzasidan erishilgan ijobiy natijalar fundamental loyiha doirasida o‘z aksini topgan.

siyosiy diskursda kognitiv metafora qo‘llanishining kommunikativ zaruratini yuzaga chiqaruvchi omillar hamda ularning lingvistik belgilari misollar asosida yoritilishi, siyosiy diskursda keng qo‘llaniladigan metaforalarning kognitiv asoslari, semantik maydonlari va lingvistik ifoda vositalari aniqlanishi, metaforalarning siyosiy nutqdagi kommunikativ vazifalari ochib berilshi xususidagi xulosa va natijalardan Qori Niyoziy nomidagi tarbiya pedagogikasi milliy instituti Qoraqalpog‘iston filialida 2017-2020-yillarda bajarilgan FZ- 2016-09081165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotni rivojlantirish metodikasi” mavzusida bajarilgan fundamental loyahasini amalga oshirishda foydalanilgan. (Qori Niyoziy nomidagi tarbiya instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2025-yil 18-avgustdagi №334-son ma’lumotnomasi). Natijada, tadqiqot natijalarini amaliy qo‘llash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

siyosiy diskursning ingliz va o‘zbek tillaridagi lingvistik, kognitiv hamda lingvokognitiv xususiyatlari dalillanishi hamda ingliz (Britaniya, Amerika) va o‘zbek siyosiy diskurslarining lingvistik, kognitiv xususiyatlari qiyosiy tahlil asosida aniqlanishi, ikki tildagi siyosiy diskurslarda til vositalarining qo‘llanish xususiyatlarining umumiy va milliy-differensial jihatlarini aniqlash asosida siyosiy matnlarning kognitiv tuzilmalari o‘rtasidagi farqlar yoritilishi mazmunida erishilgan natijalardan “Samarqand viloyati teleradiokanali” DMda 2025-yil 9-avgust kuni efirga chiqqan “Kun mavzusi” eshittirishining navbatdagi soni ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan. (Samarqand viloyat teleradiokanali DM ning 2025-yil, 13-avgust 01-07/282-son ma’lumotnomasi). Natijada,

tomoshabinlarning siyosiy diskursning ingliz va o‘zbek tillari misolidagi lingvistik, kognitiv hamda lingvokognitiv xususiyatlari to‘g‘risidagi bilimlarini oshirishga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro, 5 ta respublika anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 14 ta ilmiy ish nashr etilgan, jumladan, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta ilmiy maqola, xorijiy jurnallarda 6 ta maqola chop qilingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 147 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **“Kirish”** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslanib, tadqiqotning maqsad-vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilib, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi ko‘rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Diskurs tushunchasining lingvistik tavsifi”** deb nomlanuvchi I bobida diskursning nazariy tadqiqi, diskursning turlari va bunda siyosiy diskursning o‘rni, siyosiy diskursning kognitiv va pragmatik xususiyatlari kabi masalalar o‘rganilgan hamda ushbu masalalarga munosabat bildirilgan.

Diskurs – ko‘p fanlarning tadqiqot mavzusi. So‘nggi yillarda zamonaviy gumanitar hamda texnika fanlari tizimida diskurs termini universal metodologik vositaga aylandi. Shu bois bu tushuncha turli ilmiy konsepsiyalarga bog‘liq holda olimlar tomonidan turlicha talqin qilinmoqda. Lingvistik tadqiqotlarda “diskurs” kategoriyasining ommalashishi uning semantik chegaralarining kengayib ketishiga va uslubiy noaniqliklarga olib keldi. G.G.Slishkinning fikriga ko‘ra, bu atama hozirgi kunda nafaqat obyektни tavsiflash uchun, balki tadqiqotning dolzarbligini ko‘rsatuvchi stilistik vosita sifatida ham ishlatilmoqda. Bunday “parollashish” hodisasi esa tushunchaning ilmiy qiymatini tushunishda murakkabliklar tug‘dirmoqda<sup>13</sup>.

Bobning **“Diskursning nazariy tadqiqi”** deb ataluvchi birinchi bo‘limida diskurs atamasining zamonaviy tilshunoslikda shakllanishiga turtki bo‘lgan omillar, uning nazariy asoschilari hamda mazkur tushunchaning maqsad va vazifalari ko‘rib chiqilib, umumiy xulosalar berilgan va muallif munosabati bayon etilgan. Z. Harris “Discourse analysis” kitobida diskurs terminini birinchi bor

---

<sup>13</sup> Слышкин Г.Г. От текста к символу: лингвокультурные концепты прецедентных текстов в сознании и дискурсе / Г. Г. Слышкин. – М.: Academia, 2000. – С. 67.

ishlatdi.<sup>14</sup> 1980-yillarning boshlarida diskursni o'rganish tilshunoslikda umumiy asarlarning paydo bo'lishi bilan birga rivojlandi.

XX asrning so'nggi yillarida “qo'shimcha lingvistik omillar bilan birlashtirilgan izchil matn; voqea aspektida olingan matn; maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o'zaro ta'sirida va ularning ongi mexanizmlarida (kognitiv jarayonlar) ishtirok etadigan tarkibiy qism”<sup>15</sup> nutq deya atala boshlandi. Tadqiqotlarda yozma muloqotga nisbatan “matn” tushunchasi, og'zaki nutqqa nisbatan esa “diskurs” tushunchasi qo'llanilgan. M. Makarov o'tgan asrning 70-yillari boshlarida olimlar “matn” va “diskurs” tushunchasini bir-biridan farqlashga harakat qilganligini ta'kidlaydi<sup>16</sup>. Nutqni “matn+vaziyat”, matnni esa “diskurs+vaziyat” deb talqin qilish taklif qilindi<sup>17</sup>. Uzoq yillar davomida jonli nutqni lingvistik jihatdan tahlil qilish e'tibordan chetda qoldi, badiiy asar qahramonlarning og'zaki nutqi “matn” deb tushunildi va badiiy tahlil qilish vositasi sifatida ko'rildi. Keyinroq tilni o'rganishga kommunikativ-faol yondashuvning rivojlanishi tilshunoslarning e'tiborini og'zaki nutqqa, nutqiy jarayonlarga qaratdi. Nutqqa bunday yondashuv “muloqot jarayonida tildan foydalanishdan tashqari muloqot ishtirokchilari bir-biriga nisbatan ma'lum kommunikativ harakatlarni amalga oshirishini ham nazarda tutadi. Shunday qilib, og'zaki nutq shaxslararo o'zaro ta'sir usuli/shakli sifatida qaraldi. Bunday talqin lingvistik tahlilda o'zaro ta'sir faqat og'zaki muloqot doirasi bilan cheklanib qolmasligini, balki yozma muloqotni ham hisobga olishga imkon beradi.<sup>18</sup>

Quyida “diskurs” tushunchasining ko'p ma'noli ekanligini va tadqiqotimiz uchun uning eng ma'qul keladigan ta'rifini ko'rib chiqamiz. A.P. Bulatova diskursning ikkita asosiy xususiyatini qayd etadi:

- Diskurs matn yoki nutqdan farqli ravishda uni foydalanuvchilar qanday tushunib qabul qilishlaridan qat'iy nazar, ong tushunchasini o'z ichiga oladi.

- Diskurs chiziqli va tugallangan ketma-ketlik emas, diskurs bu aytilgan hamma narsa<sup>19</sup>.

So'nggi yillardagi ilmiy izlanishlar natijasida diskursning mazmuniy qamrovi va tahlil metodologiyasi tubdan kengaydi. Tilimizga diskurs bir qancha tilshunoslar – strukturalist va poststrukturalistlar (E. Benvenist, J. Searle, T.A. van Deyk, M. Halliday, M. Fuko) ning ilmiy ishlari orqali kirib kelgan.

Diskurs tushunchasining ko'p ma'noliligi haqida gapirganda N.N. Belozerovanning “Diskurs paradokslari” ishini eslab o'tish joizdir. Bu ishda “diskurs” so'zining o'rta asrlardan to hozirgi davrimizgacha etimologiyasi va transformatsiyasi tahlil qilinadi<sup>20</sup>. Bu so'z lotin tilida “kursdan og'ish”, “uzoqqa

<sup>14</sup> Harris Z.S. Discourse Analysis // Language. – 1952. – Vol.28. – P. 1 -30; – P. 474-494.

<sup>15</sup> Арутюнова Н.Д. // Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990.

<sup>16</sup> Макаров М.Л. Основы теории дискурса. –М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С.87.

<sup>17</sup> Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М., Гнозис, 2003. – С .176.

<sup>18</sup> Цурикова Л.В. Проблема естественности дискурса в межкультурной коммуникации. Воронеж: ВГУ, 2002. – С. 10.

<sup>19</sup> Булатова, А. П. Концептуализация знания в искусствоведческом дискурсе / А. П. Булатова // Вестник МГУ. Сер. 9, Филология. 1999. – № 4. – С. 34-49.

<sup>20</sup> Белозерова, Н. Н. Парадоксы дискурса / Н. Н. Белозерова // Language and literature [Электронный ресурс].

qochish” va hokazo ma’nolarni ifodalagan. Lekin muttasil ravishda jismoniy harakat nominatsiyasi nutqiy harakat nominatsiyasiga o’zgargan. Va nihoyat fransuzcha “discours” so’zining birinchi ma’nosi “dialogik nutq” ma’nosini anglatgan<sup>21</sup>. “Lekin ozroq vaqt o’tgandan keyin, XIX asrdayoq bu so’z polisemantik, ya’ni ko’p ma’noli so’zga aylandi va Yakob Grimm hamda Vilgelm Grimmning nemis tili lug’atida quyidagi ma’nolari keltirildi: 1) dialog, suhbat; 2) nutq, ma’ruza. Aynan “nutq” ma’nosida *diskurs* so’zi zamonaviy g’arb tilshunoslik ilmiy ishlarida ko’pincha ishlatiladi (oral discourse, free indirect discourse)”<sup>22</sup>.

Birinchi bobning **“Diskurs tipologiyasi va siyosiy diskursning undagi o’rni”** deb nomlangan ikkinchi bo’limida diskurs turlari o’rganilgan, siyosiy diskursning o’rni tadqiq qilinib, unga munosabat bildirilgan.

Diskursning ko’p taraflama va ko’p xususiyatlarga ega ekanligini e’tiborga olib tadqiqotchilar diskursning bir qancha turlarini ko’rsatib o’tishgan.

N.N.Mironova diskurs hodisasining polifunksional tabiatidan kelib chiqib, uning institutsional turlarini differentsiatsiya qiladi. Tadqiqotchi pedagogik, siyosiy, ilmiy, tanqidiy, etik, yuridik va harbiy diskurslarni alohida ijtimoiy-kommunikativ maydonlar sifatida farqlaydi. Muallifning yondashuvida har bir diskurs turi o’zining pragmatik yo’naltirilganligi bilan ajralib turadi: masalan, ilmiy diskursda bayonning obyektivligi birinchi darajali ahamiyat kasb etsa, siyosiy va etik diskurslarda ijtimoiy ongni shakllantirish hamda qadriyatlarini interpretatsiya qilish ustuvorlik qiladi<sup>23</sup>.

Diskurs turlarining funksional tasnifida “pragmatik diskurs” markaziy o’rin egallaydi, zero u barcha institutsional nutq ko’rinishlarini umumlashtiruvchi invariant hisoblanadi. V.I.Karasik esa muloqot subyektlarining ijtimoiy munosabatlarini inobatga olgan holda, diskursni personallashtirgan (shaxsiy) va institutsional turlarga differentsiatsiya qiladi. Institutsional diskursda muloqot ishtirokchilari muayyan ijtimoiy rollar doirasida harakat qilsalar, personallashtirgan diskursda muloqot subyektlarining individual-psixologik xususiyatlari ustuvorlik kasb etadi<sup>24</sup>. V.I.Karasik talqinida ekzistensial diskurs mayishiy muloqotdan o’zining chuqur semantik boyligi va monologik tabiati bilan farqlanadi.

M.L.Makarov diskursning tipologik xususiyatlarini aniqlashda muloqotning tarkibiy va funksional parametrlariga tayanadi. Tadqiqotchi so’zlashuv va institutsional diskurslarni farqlash uchun oltita fundamental mezonni (nutqiy cheklovlar, rollar simmetriyasi, tizimlilik darajasi va h.k.) asos qilib oladi. Makarov tasnifiga ko’ra, institutsional diskurs o’zining qat’iy mantiqiy tuzilishi, professional maqsadga yo’naltirilganligi va kommunikativ rollarning iyerarxik taqsimoti bilan spontan so’zlashuv diskursidan tubdan ajralib turadi<sup>25</sup>.

<sup>21</sup> Миронова, Н. Н. Оценочный дискурс: проблемы семантического анализа / Н. Н. Миронова // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 1997. – Т. 56, № 4. – С. 52-59.

<sup>22</sup> [https://elibrary.ru/jsui/bitstream/ru-tsu/7136/1/Shapochkin\\_808\\_2019.pdf](https://elibrary.ru/jsui/bitstream/ru-tsu/7136/1/Shapochkin_808_2019.pdf)

<sup>23</sup> Миронова Н.Н. Оценочный дискурс: проблемы семантического анализа / Н.Н.Миронова // Известия РАН. Серия литературы и языка. – 1997. –Т. 56, № 4. – С.52-59.

<sup>24</sup> Карасик В.И. Этнокультурные типы институционального дискурса / В. И. Карасик // Этнокультурная специфика речевой деятельности: сб. обзоров. – М.: ИНИОН РАН, 2000. – С. 37-64.

<sup>25</sup> Макаров М.Л. Основы теории дискурса. – М.: ИТДГК «Гнозис», 2003. – С.175.

Diskurs turlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotchilar o'z qarashlaridan kelib chiqqan holda turli xil mezonlarga asoslanib diskursni turlarga ajratishgan.

Siyosiy diskursning fundamental ijtimoiy determinatsiyasi – adresatda muayyan siyosiy qarashlar va xatti-harakatlarga nisbatan ehtiyoj shakllantirishdir. Mazkur muloqot turining dominant funksiyasi referentiv (voqelikni xolis tavsiflash) emas, balki konativ (harakatga undash) va persuaziv (ishontirish) xarakterga ega. Binobarin, siyosiy nutq obyektiv voqelikni aks ettirishdan ko'ra, tinglovchining kognitiv tizimida ma'lum bir niyatni uyg'otish va uni strategik maqsadlar sari yo'naltirishga qaratilgan<sup>26</sup>.

Shuning uchun siyosiy diskursning samaradorligini ushbu maqsadga nisbatan aniqlash mumkin.

Birinchi bobning uchinchi faslida **siyosiy diskursning kognitiv-diskursiv xususiyatlari** tahlil qilinadi.

Siyosiy tahlil – bu mahorat va aniq texnikani birlashtirish demakdir. Tadqiqotchining mahorati g'oyani ko'rishga yordam bersa, aniq usullar g'oyaning ilmiy haqiqat ekanligini isbotlaydi.

Siyosiy nutq tabiatini tadqiq etishda T.A. van Deyk tomonidan asos solingan kognitiv-diskursiv tahlil metodologiyasi yuqori ilmiy samaradorlikka ega. Mazkur yondashuv Britaniya va Amerika siyosiy diskursining o'ziga xos konseptual xususiyatlarini davlat arboblarning ommaviy chiqishlari misolida qiyosiy-tipologik jihatdan yoritish imkonini beradi. Bizning nuqtayi nazarimizcha, kognitiv-diskursiv tahlil universal xarakterga ega bo'lib, u muloqotning verbal va noverbal shakllaridan qat'i nazar, ijtimoiy interaksiyaga yo'naltirilgan har qanday diskursiv birlikni tahlil qilishda fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.

Siyosiy diskursning kognitiv modeli. “Ma'lumki, siyosiy diskurs nutqiy ta'sir ko'rsatadigan diskurs va buni “bir ishtirokchidan ikkinchisiga bilimlarni uzatishga olib keladigan muloqot vaziyatlari ishtirokchilari olamining modellari ustidan bajariladigan ishlar umumiyliigi” sifatida tasvirlash mumkin”<sup>27</sup>.

“Bundan kelib chiqadiki, dunyo modeli kognitiv tizim yoki uning modeliga xos bo'lgan ma'lum darajada dunyo haqida tashkillashtirilgan bilimlardir”<sup>28</sup>. “O.S.Issers yozganidek, “... bir tomondan, dunyo modeliga “obyektiv” deb hisoblash mumkin bo'lgan olam haqidagi umumiy bilimlar kiradi. Gap “qor bahorda eriydi” tipidagi oddiy propozitsiyalar, “Volga Kaspiy dengiziga quyiladi”ga o'xshash maxsus faktlar yoki (agar sovuq bo'lsa, issiq kiyinish kerak) kabi qoidalar haqida ketmoqda. Boshqa tomondan, dunyo modelida “subyektiv” deb atash mumkin bo'lgan boshqa turdagi bilimlar ham bor. Bu qadriyatlar va ularning iyerarxialari, individ va sotsiumning tajribasini umumlashtirgan boshqa

<sup>26</sup> Bayley P. Live oratory in the television age: The language of formal speeches / P. Bayley // Campaign language: Language, image, myth in the U.S. presidential elections 1984 / G. Ragazzini, D. Miller (eds.). – Bologna: Cooperativa Libreria Universitaria Editrice Bologna, 1985. – P. 77-174.

<sup>27</sup> Баранов А.Н. Лингвистическая теория аргументации (когнитивный подход): Автореф. дис. ... д-ра филол. наук. – М., 1990. – С.11.

<sup>28</sup> Баранов А.Н. К построению словаря терминов когнитивной науки / А.Н. Баранов, П.Б. Паршин // Когнитивные исследования за рубежом: Методы искусственного интеллекта. – М., 1990. – С. 139-149.

kognitiv strukturalar”<sup>29</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Zamonaviy siyosiy diskursining kognitiv – diskursiv xususiyatlari (hozirgi davr Britaniya, Amerika a o‘zbek siyosiy nutqlari misolida)**” deb nomlanib, unda Britaniya, Amerika va o‘zbek siyosiy diskursining umumiy xususiyatlari, kommunikativ-pragmatik maydon (kontekst) tavsifi, ya'ni, kontekstual tahlil, lisoniy maydon xususiyatlari (matn), ya'ni matnli tahlil, Britaniya, Amerika va o‘zbek siyosiy diskursida eksplisitlik va implisitlik tahlil qilinadi.

Ikkinchi bobning birinchi fasli “**kognitiv-diskursiv tahlil usullari**” deb nomlanadi. Emil Benvenist lingvistikada antroposentrik yondashuv asoschilaridan biri sifatida diskurs tushunchasiga ilk bor terminologik ma’no yuklagan. Uning talqiniga ko‘ra, diskurs – bu so‘zlovchi shaxsiyati, uning intensiyasi (niyati) va muloqot vaziyati bilan bog‘langan jonli nutqiy jarayondir. Benvenist diskursni “hikoya qilish”dan (*histoire*) farqlagan: agar hikoya qilishda voqealar obyektiv va personajsiz (muallifsiz) bayon etilsa, diskursda doimo so‘zlovchi ("Men") va tinglovchi ("Sen") mavjud bo‘ladi<sup>30</sup>. Keyinchalik, diskurs tushunchasi kengayib, nafaqat lisoniy tizim, balki ekstralingvistik (vaziyatga oid) va pragmatik omillar bilan shartlangan murakkab muloqot hodisasiga aylandi.

Diskursiv tahlilning genezisi 1952-yilda Z.Xarris tomonidan taklif etilgan distributiv metodga borib taqaladi. Biroq, zamonaviy tushunchadagi diskurs va matn o'rtasidagi differentsiyatsiya (farqlanish) XX asrning so‘nggi choragida yakunlandi. Kognitiv tahlil doirasida diskursni tadqiq etish metodologiyasi yagona qolip bilan cheklanmaydi. Aksincha, ushbu jarayon tanlangan nazariy asos, tadqiqot metodikasi, muayyan ilmiy maktab an‘analari hamda olimning shaxsiy konseptual qarashlariga ko‘ra bir-biridan jiddiy farqlanishi mumkin. Tahlil strukturasini T.A. van Deyk nazariyasi asosida sxema shaklida ko‘rsatamiz:

### **Diskursning kognitiv tahlili**

#### *Matn tahlil*

Fonetik daraja

Grafik daraja

Morfologik daraja

Gap sintaksisi

Semantika va leksika

Makrostrukturalar darajasi

Ritorik aspekt

#### *Kontekstual tahlil*

Vaqt

Joy

Voqea-hodisa / harakat

Faoliyat sferasi

Ishtirokchilar

Ishtirokchilar roli

Ishtirokchilarning kognitiv xarakteristikasi

Diskurs kognitiv tahlilining matn aspekti. Diskurs kognitiv tahlilining matn aspekti fonetik darajadan sintak tahlilgacha bo‘lgan barcha darajalardagi struktur tahlilni o‘z ichiga oladi. Bu darajalarning har biri maksimum axborotni olish uchun strategik qo‘llanilishi mumkin. Diskursning alohida turlarini, masalan, siyosiy nutq

<sup>29</sup> Иссерс О.С. Речевое воздействие в аспекте когнитивных категорий / О. С. Иссерс // Вестник Омского университета. – 1999. – № 1. – С. 74 -79.

<sup>30</sup> Бенвенист Э. О субъективности в языке / Э. Бенвенист // Общая лингвистика (глава XXIII). – М.: Прогресс, 1974. – С. 292-300.

diskursini o'rganganimizda, bizning vazifamiz faqat shunday gaplarda bo'lishi mumkin bo'lgan strukturalarni tavsiflash emas, balki shunday turdagi diskurs uchun tipik bo'lgan yoki ma'qul ko'rilgan grammatik strukturalarni ham tavsiflashdir.

Diskurs kognitiv tahlilini matn strukturalari bilan cheklash to'g'ri bo'lmaydi. Diskursga butun, integratsiyalashgan yondashuv pozitsiyasidan yondashish lozim. Shunga ko'ra matn va kontekst o'rtasidagi mavjud aloqalarning bir qancha aspektlarini ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kontekstual tahlilning turli kategoriyalari turlicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Ularning ko'pchiligi hol (settings): *zamon (time)*, *o'rin (location)*, *voqea / harakat (event/action)*, *qatnashchilar (participants)*. Shubhasiz, bu kategoriyalar to'liq aloqador (relevant) kategoriyalar, lekin har tomonlama tahlillar yanada ahamiyatli bo'lgan bir qancha kategoriyalar borligini ko'rsatadi<sup>31</sup>. Bular orasida: *faoliyat sohasi (domain)*, *diskurs ishtirokchilari roli (roles)*, *ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlar (social relations)* muhimdir<sup>32</sup>.

Ikkinchi bobning ikkinchi bo'limi "**Britaniya va Amerika siyosiy nutqining kognitiv-diskursiv tahlili**" deb nomlanadi. Birinchi bobdagi nazariy qoidalardan va siyosiy diskursning kognitiv modelidan kelib chiqqan holda siyosiy nutqni kognitiv-diskursiv tahlilini quyidagi mezonlar yordamida talqin qilishni maqsadga muvofiq deb topildi:

1. Britaniya va Amerika siyosiy diskursining umumiy xarakteristikasi. Bu yerga yana quyidagilar kiradi: siyosiy arbobning lisoniy shaxs sifatida tavsifi (tolerantlik) // so'zlovchining kognitiv-nutqiy tavsifi.

2. Kommunikativ-pragmatik kenglik (kontekst) tavsifi, ya'ni kontekstual tahlil.

3. Lisoniy kenglik (matn) tavsifi, ya'ni matn tahlil.

4. Britaniya, Amerika siyosiy diskursida eksplisitlik va implisitlik tavsifi.

**Britaniya siyosiy nutqining tahlili.** Tadqiqot materiali sifatida bizga XX asr Buyuk Britaniya bosh vazirlarining ommaviy siyosiy diskursi xizmat qildi<sup>33</sup>.

Lisoniy shaxs sifatida siyosiy arbobni tavsiflashda uning tolerantligi kabi sifatiga e'tibor berish muhim. Bu holatda u kommunikativ fenomen sifatida qiziqarli bo'ladi (shaxsning omma orasida o'zini tutishi, kamtarlik, ehtiyotkorlik, kimningdir adresiga nisbatan tajovuzkor gaplarni aytishdan tiyilish). Tilshunoslik nuqtaiy-nazaridan tolerantlik ijobiy denotatsiya, konnotatsiyali leksikaning qo'llanilishida namoyon bo'ladi, abadiy qadriyatlarga murojaat qilishda, modal konstruksiyalar va evfemizmlar ishlatilishida ko'rinadi.

*...Sport – and particularly football – is the international language. ... In the past, the cancer of racism has too often scarred our game – the sound of revolting monkeys chanting whenever a black player got the ball. Bananas were thrown on the pitch. Black players and fans verbally intimidated...*

<sup>31</sup> Dijk T.A. van. Political Discourse and Ideology [Электронный ресурс] / T.A. van Dijk. – 2001. – URL: <http://www.discourse-in-society.org/dis-pol-ideo.htm>

<sup>32</sup> Yakubov F.J. Kognitiv-diskursiv tahlil usullari // Til, Ta'lim, Tarjima xalqaro jurnali, 2024-yil, 1-son, 5-jild. – B. 65-72.

<sup>33</sup> [https://drive.google.com/file/d/1I1aJUiVwZYQwgsjd2YKna7-zZehnk-F/view?usp=drive\\_link](https://drive.google.com/file/d/1I1aJUiVwZYQwgsjd2YKna7-zZehnk-F/view?usp=drive_link)

Tony Blerning 1997 yil 2 dekabrda sport kampaniyasida irqchilikka qarshi nutqida irqchilik konseptual metaforalar bilan mutlaqo yovuzlik sifatida namoyon bo'ladi: irqchilik – kasallik, irqchilik – yovuz hayvonlar dunyosi, bu ostiga chizilgan frazalarda o'z ifodasini topgan. Bu diskurs parchasi tolerantlikka yo'naltirilgan, unda irqchilik absolyut yovuzlik sifatida ko'rsatilgan.

**Bobning uchinchi fasli “O‘zbek siyosiy nutqining kognitiv-diskursiv tahlili”** deb nomlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning saylovoldi chiqishlari va dasturi, o‘zbek tilidagi saylovoldi nutqlari o‘zbek siyosiy nitqini kognitiv-diskursiv tahlili uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek siyosiy diskursini ham Britaniya va Amerika siyosiy nutqlarida qo‘llanilgan mezonlar asosida tahlil qilindi.

*Hurmatli sessiya ishtirokchilari!*

*Xalqaro xavfsizlik Afg‘onistondagi jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo‘lib, u afg‘on masalasini hal etishda o‘ziga xos yondashuvlarni talab etmoqda.*

*Afg‘onistonni o‘z muammolari bilan yana yolg‘iz qoldirish – bu katta xato bo‘ladi. Inkor qilish, yakkalab qo‘yish va sanksiyalar qo‘llash oddiy afg‘on xalqining ahvolini yanada og‘irlashtirmoqda.*

*Afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami ko‘rsatishni susaytirmaslik lozim, deb hisoblaymiz. Afg‘onistonning muzlatilgan xalqaro aktivlarini bu yurtdagi o‘tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga yo‘naltirish uchun maqbul mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.<sup>34</sup>*

O‘z maqasadiga ko‘ra bu diskurs parchasi tolerantlikka chaqiruv. Unda Afg‘onistonni yakkalab qo‘yish, inkor qilish va sanksiyalar qo‘llash oddiy afg‘on xalqining ahvolini yanada og‘irlashtirishi ta’kidlanadi.

Endi quyidagi misollarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning siyosiy nutqlarida ko‘p uchraydigan kognitiv-nutqiy strategiyalarni ko‘rib chiqamiz.

#### 1. Umumlahtirish

*...Hozirgi qiyin davrda Afg‘onistonni yakkalab, uni muammolar girdobiga tashlab qo‘yish mumkin emas.*

*... Biz oddiy haqiqatdan kelib chiqmoqdamiz: xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va qudratli bo‘ladi.*

*... Bir so‘z bilan aytganda o‘tgan qisqa vaqt mobaynida mintaqada mutlaqo yangi siyosiy muhit yaratishga erishildi.*

#### 2. Misol keltirish

*...Sentabr oyining boshida O‘zbekiston – Qirg‘iziston davlat chegarasi to‘g‘risidagi shartnoma imzolanishi tom ma‘noda muhim voqea bo‘ldi.*

*O‘tgan yili “Turkiy sivilizatsiyaning yangi davri: umumiy taraqqiyot va farovonlik sari” shiori ostida bo‘lgan Samarqand sammitida imzolangan hujjatlar hayotga izchil tatbiq etilmoqda.*

<sup>34</sup> <https://uzbekistan.org/uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-birlashgan-millatlar-tashkiloti-bosh-assambleyasining-78-sessiyasidagi-nutqi/3857/>

*...Buyuk ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat ta'biri bilan aytganda, "xotin-qizlar – bu millat onalaridir".*

### 3. Tuzatish

*...Ming yillar davomida tarixi va taqdiri turkiy elatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan ko'pmillatli Afg'oniston zaminida tinchlik va osoyishtalik o'rnatish mintaqamizda strategik barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlashning asosiy shartidir. Biroq dunyoning boshqa nuqtalarida nizo va urushlar avj olayotgan hozirgi sharoitda ushbu muammo xalqaro hamjamiyat e'tiboridan tobora chetda qolmoqda.*

*Afg'on xalqiga insonparvarlik yordami ko'rsatishni susaytirmaslik, bu yurtdagi o'tkir ijtimoiy muammolarni hal etishga qaratilgan aniq mexanizmlarni ishlab chiqishga chaqiramiz.*

*... Shu munosabat bilan Jamg'arma boshqaruviga amaldagi Dasturni tanqidiy qayta ko'rib chiqish topshirig'ini berishni taklif etaman. Bunda har bir mintaqaviy loyihaning hajmini va moliyalashtirish manbalarini belgilagan holda, "yo'l xaritalari"ni, shuningdek, ularning ijrosi bo'yicha kelishilgan jadvalni tayyorlashni nazarda tutish lozim.*

### 4. Kuchaytirish

*...Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi – bu, avvalo, Markaziy Osiyo mamlakatlarining global miqyosdagi eng o'tkir muammolardan birini yechish bo'yicha ko'p tomonlama hamkorlik borasidagi noyob tajribasidir.*

*Shuni alohida qayd etmoqchimanki, Jamg'arma suv va ekologiya sohasida mintaqaviy hamkorlikning eng muhim platformasiga aylandi.*

### 4. Takror

*...Men doimo ta'lim, ta'lim, muallim, muallim, deb ta'kidlashim bejiz emas. Chunki ta'limni rivojlantirmasdan turib yuksak taraqqiyotga erisha olmaymiz. Har qanday muammoning yechimi ham, ertangi kunimizni hal qiluvchi omil ham, shubhasiz, ta'limdir.*

*...Biz endi kechagi odamlar emasmiz. Xalqimiz ham kechagi xalq emas.*

